

INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE

FRANCE

SCIENTIFIC APPROACH
TO THE MODERN
EDUCATION SYSTEM



ISOC

INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES

zenodo

OpenAIRE



digital
object
identifier





FRANCE international scientific-online conference:
"SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN
EDUCATION SYSTEM"

Part 31
5th DECEMBER
COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

PARIS 2024

SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM: a collection of scientific works of the International scientific online conference (5th, DECEMBER 2024) – France, Paris: "CESS", 2024. Part 31–259p.

Chief editor:

Candra Zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia Sunmoon University, South Korea.

Editorial board:

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, казақша, о'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն....

The collection consists of scientific researches of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference.

"SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM". Which took place in Paris on December 5th, 2024

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2024
© Authors, 2024

PROKUROR NAZORATI	
Mahliyo Rahmonova	113
<i>ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALALARINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI</i>	
Jamolova is the daughter of Zebiniso Karshiboy	118
<i>THE ROLE OF THE GREAT HERITAGE OF THE ENCYCLOPEDIST AND STATESMENT MIRZO ULUG'BEK IN MODERN SCIENCE AND TECHNOLOGY</i>	
Talabjonov Bunyodbek Saidahmad o'g'li	121
<i>QUVASOY SHAHRI HUDUDIDA JOYLASHGAN ARXEEOLOGIK YODGORLIKLARNI MADANIY TURIZM MASKANLARIGA AYLANTIRISH BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR</i>	
Farmonov Sherzodbek Raxmonjonovich	125
Imomnazarov Saidolim Saidahmad o'g'li	
<i>BFS ALGORITMI VA UNING XAVFSIZLIK SOHASIDAGI ROLI</i>	
Kenjayeva Nasiba Maqsud qizi	132
Mirzayeva Mushtariy Axmad qizi	
<i>VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA JINOYATLAR SONINING O'SIB BORISHI</i>	
Teshaev Oktyabr Ruhullaevich	135
Murodov Alijon Salimovich	
<i>MESENTERAL THROMBOSIS COMPLICATION AND PREVENTION MEASURES AFTER BARIATRIC SURGERY IN PATIENTS WITH MORBID OBESITY</i>	
Ulmasova Nasiba Sohibjon qizi	138
Qahramanova Shahnoza Erkin qizi	
<i>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHI VA TA'LIM-TARBIYASINING O'ZIGA XOSLIGI</i>	
Nasiba Norova	141
Shahrizoda Do'stmurodova	
<i>OMON MUXTOR ROMANLARIDA DAVR VA QAHRAMON TALQINI MASALASI</i>	
Zarnigor Sohibova	149
<i>ABDULLA ORİPOV İJODIDA PEYZAJNING BADIYY AHAMIYATI</i>	
Saidova Mukhayyo Umedilloevna	156
Tursunova Sarvinoz G'afurovna	
<i>THE PROBLEMS OF LEARNING STYLISTIC DEVICES</i>	
Tukhtaeva N.Kh	159
Musayev Kh.N	
Karimov M.Sh	
Ilyasov Kh.A	
<i>MEDICAL-SOCIAL CHARACTERISTICS AND RISK FACTORS IN PATIENTS WITH ISCHEMIC HEART DISEASE</i>	
Баҳромов Суннатилла Ҳамиджон ўғли	161
<i>ҚОЗИЛАР ОИЛАСИГА МАНСУБ УСТУВОИЙ</i>	

ABDULLA ORİPOV İJODIDA PEYZAJNING BADIİY AHAMIYATI

Zarnigor Sohibova

BuxDU doktoranti (DSc) z.n.sohibova@bux.uz

Annotatsiya: mazkur maqolada Abdulla Oripov she'rlaridagi tabiat tasvirining o'ziga xos jihatlari va badiiy ahamiyati yoritilgan, peyzajning shoir ijodidagi o'rni va ramziy ma'nolari tafsiflangan.

Kalit so'zlar: Abdulla Oripov she'rlari, tabiat tasviri, peyzaj.

Adabiyotimizda tabiat manzarasi, bizni o'rab turgan jonli va jonsiz borliq tasviri aks etgan she'rlar alohida turkumni tashkil qiladi.

Bunday asarlar manzara yoki peyzaj lirikasi namunalari sifatida kichkina yaproq tasviridan keng yoyilgan o'rmongacha, ko'z ilg'amas toshdan buyuk tog'lar, mayda qum zarrasidan samodagi yulduzlar vasfigacha – juda katta tasvir obyekti, ifoda manbaiga egadir.

Peyzaj (fr. paysage – mamlakat, joy so'zlaridan) badiiy asarda aks ettirilgan joy, tabiat tasviri bo'lib, u ijodkorning metodi va uslubi bilan bog'liq holda turlicha vazifalarni o'taydi [2:228].

Abdulla Oripovning tabiat lirikasi manzaralarning jonli va musavvirona tasviri, falsafiy xulosa chiqarish vositasi sifatida alohida ahamiyatga ega.

Shoir ijodining ilk davrlariga xos (1958) “Tog‘lar” [1:16] she'rida tog‘ tabiatining go'zalligi ijodkorning diqqatini tortadi.

Unda muallif quyoshning ilk nurlari, par bulutlar, marvarid qorlar, yuksak cho'qqi, sho'x shalola, toshqin soy, sof havo, ko'm-ko'k samo, dilrabo tog‘, yosh qalb singari qator sifatlash va o'xshatishlarni qo'llaydi.

She'r apostrofa – tog‘ga murojaat bilan boshlanadi:

Eh, siz tog‘lar, naqadar ko'rkar!

Sizga berar ilk nurin quyosh.

Par bulutlar, marvarid qorlar

Yuksak cho'qqi uzra qo'ygan bosh.

Sho'x shalola toshar hayqirib,

Ko'ksingizga baxsh etib chiroy.

Qoyalarga bosh urar sapchib,

Suvlar to'lib oqqan toshqin soy.

Sizdan ko'zin uzolmay har kech

Quyosh qo'yar yostig'iga bosh.

Sof havoda olishib orom

Uxlar sokin har cho'qqi, har tosh...

Faqatgina u sho'x shalola

Daralarga soladi shovqin.

Oy suzadi ko'm-ko'k samoda

O'qigandek husningga tahsin...

She'rdagi kayfiyat ko'tarinki, hayotiylik bilan to'la. Tog' manzarasiga berilgan ta'rif haqqoniy, tavsif va tashxis esa asosli. Uni o'qigan kitobxon xayolan tabiat og'ushida sayr qiladi, lirk qahramondagi ijobjiy pafosni his qiladi. She'rdagi har bir obrazda mavjudlikdan mammunlik, baxt va surur aks etadi. So'nggi bandda tog' tabiatidagi go'zallik shoirni ilhomlantirganligi ifodalanadi:

Eh, siz tog'lar, dirlabto tog'lar,
Yosh qalbimni maftun etgansiz.
Yoshlik baxtni kuylagin deya
Ijodimga ilhom tutgansiz.

Peyzaj – rassomlik (rang-tasvir, grafika) va haykaltaroshlikda tabiatni aks ettiruvchi janr yoki shu janrda yaratilgan alohida asar [5]. Tasviriy san'atning muhim tushunchasi sifatida peyzaj adabiyotda – badiiy so‘z vositasida manzara chizish, tabiat va joy tasvirining ifodasidir. Abdulla Oripovning “O'rmon” she'ri [1:196] ham sof peyzaj mavjudligi bilan diqqatni tortadi:

Yalang'och, sarg‘aygan, kimsasiz o'rmon,
Boshingda charx urar kuzgi dovullar.
Sening yaproqlaring esa bearmon
Bahor qo'shig‘ini aytib shovullar.
Archazor ortidan sayrar bo'g'iq qush,
Ufqlar so'ngida qora bir ro'yo.
Uzoq-uzoqlarda g'amgin va behush
Cho'zilib yotibdi ulkan bir daryo.

She'nda kuzgi o'rmon manzarasi tasvirlanadi. Garchi “yalang'och, sarg‘aygan, kimsasiz”, “kuzgi dovullar”, “bo'g'iq qush”, “qora bir ro'yo” singari rangsiz ifodalar mavjud bo'lsa-da, bu o'rinda kuz tushkunlikdan xoli, bag'rida bahordagi hayotiylikni asragan mavsumdir. She'rning keyingi ikki bandi buni tasdiqlab turibdi:

O'rmon qo'ynidadir sehr ila jodu
Bundadir xayolning sokin onlari.
Naqadar suluvsan, naqadar inju,
Ey, sen, shimol yurtin cho'ng o'rmonlari.
Sening quchog'ingda oqshomlar mayin –
Tuydim tuyg'ularning soz nash'asini
Za'faron zulfiningga taqib ketayin
Olis cho'llarimning binafshasini.

Lirk qahramon uchun kuzgi o'rmon – sokinlik maskani, xayol dunyosi. U gavharlar bilan bezangan sochlari za'faron tusli go'zal ayol qiyofasida gavdalanadi. Oxirgi misralarda esa shoirning vatan sog'inchi va muhabbatи aks etganligini ko'rish mumkin. Abdulla Oripovning “Holat” she'rida [1:286] esa peyzajga yondosh lirk qahramonning falsafiy mushohadalari aks etadi.

Bir nafas quyoshni o'z holiga qo'y,
Otashin dilingga etmagin qiyos.
Bir nafas quyoshday ko'rsatsin u ro'y,
Bir nafas quyoshday porlasin quyosh.

Takrorlar vositasida nafis san'at yaratilgan bu misralarda qalb va quyosh o'zaro parallel ifodalangan. Unda yurakdagi otash quyosh taftidan ham haroratliroq ekanligi badiiy tasvirlanganligini ko'rish mumkin.

Keyingi misralarda dengiz, shamol va ona yer inson o'ylari, xayollari va tuyg'ulariga kontrast qo'yildi.

Ayniqsa quyidagi bandda aks etgan alleteratsiya – z, q, t, m tovushlarining takrori misralardagi ta'sirchanlikni yanada oshirishga xizmat qilgan:

Bir zum sen zaminni qo'ygil bequtqu,

U axir ko'p tuydi tuyg'ular ta'min.

Bir zum maysalarga ona bo'lsin u,

Bir zum zamin bo'lib yashasin zamin.

Xullosa o'rnila aytish mumkinki, Abdulla Oripov ijodi mavzu rang-barangligi, obraz va tasvirlarning turli-tumanligi, ijodkorning hadsiz taxayyulidan yaralgan mazmunning keng va teranligi bilan ulkan bir ummonga o'xshaydi.

Shoir lirikasida bizni o'rab turgan borliq tasviriga vobasta inson kechinma va tuyg'ularini ifodalash, tabiat manzarasining poetik talqiniga uyg'un falsafiy fikrlar aytish, xulosalar chiqarish alohida ahamiyat kasb etadi.

Zero, "Tabiat – ustoz; u insonni ma'nani va jisman kamol toptiradi.

U hamisha hikmat va ibrat manbai" bo'lib qoladi [3:26].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдулла Орипов. Танланган асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд: Шеърлар ва достонлар. – Т.: F.Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 432 б.
2. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – 370 б.
3. Раҳимжонов Н. Асқад Мухтор поэтикаси: Рисола. – Т.: F. Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2003. – 72 б.
4. [https://kh-davron.uz/kutubxonan/uzbek/maqsuda-ergasheva-abdulla-oripov -sheriyatning-oziga-xos-xususiyatlari.html](https://kh-davron.uz/kutubxonan/uzbek/maqsuda-ergasheva-abdulla-oripov-sheriyatning-oziga-xos-xususiyatlari.html)
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Peyzaj>
6. Turaeva, L. O. (2021). Artistic and compositional features of harvest songs. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 629-634.
7. Тўраева, Л. О. (2024). ЎЗБЕК ДЕҲҚОНЧИЛИГИДА ТАҚВИМ РАМЗЛАРИ. IMRAS, 7(1), 779-783.
8. Тўраева, Л. О. (2023). ЎЗБЕК ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИДА ДЕҲҚОН ОЛҚИШЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ИФОДАСИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(24), 22-25.
9. Тўраева, Л. О. (2023). ДЕҲҚОНЧИЛИК ҚЎШИҚЛАРИ ЖАНРИНИ БЕЛГИЛАШДА КАСБИЙ АТАМАЛАРНИНГ ЎРНИ. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(22), 66-70.